

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XUDAYQULOV ANVAR SHAVKATOVICH**

**FUNKSIONAL YOG‘ MAHSULOTLARINI OLISH UCHUN XOM  
ASHYONING KOMPOZIT ARALASHMALARINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash va qayta  
ishlash texnologiyasi va biotexnologiyasi”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy(PhD)**

**Xudayqulov Anvar Shavkatovich**

Funksional yog‘ mahsulotlarini olish maqsadida xomashyoning kompozit aralashmalarini ishlab chiqish ..... 3

**Худайкулов Анвар Шавкатович**

Разработка композитных смесей сырья для получения функциональных жировых продуктов..... 21

**Khudaykulov Anvar Shavkatovich**

Development of composite mixtures of raw materials for obtaining functional fat products..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XUDAYQULOV ANVAR SHAVKATOVICH**

**FUNKSIONAL YOG‘ MAHSULOTLARINI OLISH UCHUN XOM  
ASHYONING KOMPOZIT ARALASHMALARINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash va qayta  
ishlash texnologiyasi va biotexnologiyasi”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T664 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.bmti.uz](http://www.bmti.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djurayeva Nafisa Radjabovna**

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qurbonov Jamshed Madjidovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Djaxangirova Gulnoza Zinatullayevna**

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSs.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 19-dekabr soat 14<sup>00</sup>dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Qayum Murtazoev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (65) 223-78-84, faks: (65) 223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 448-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro sh., Qayum Murtazoev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 01-dekabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 15-sentyabrdagi № 31-raqamli reestr bayonnomasi).

**S.F. Fozilov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi o‘rinbosari, t.f.d., professor

**R.R. Hayitov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., katta ilmiy xodim

**I.B. Isabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda umumjahon ekologik inqirozining tobora kengayishi sababli hozirgi vaqtda inson immun himoya tizimining funksiyalarini yaxshilash va alimantar-bog‘liq kasalliklarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan yuqori oziqaviy qiymat ko‘rsatkichlari hamda xavfsizlik mezonlari bilan xarakterlanadigan funksional oziq-ovqat mahsulotlariga talab ortib bormoqda. Bunda yog‘lar va yog‘ mahsulotlariga alohida e‘tibor beriladi. Xalqaro va ichki bozorlarda keng ishlatiladigan ushbu mahsulotlar inson organizmining, ayniqsa polito‘yinmagan yog‘ kislotalari - linol ( $\omega$ -6) va linolen ( $\omega$ -3)ga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondirmaydi, shu sababli nutritiv adekvat mahsulotlarni olish maqsadida to‘liq asoslangan holda boyitish ob‘ekti sifatida muhim ahamiyatga ega.

Jahonda oziqaviy qiymati yuqori bo‘lgan, yog‘ kislota tarkibi yaxshilangan hamda vitaminlar, essensial mikroelementlar, flavonoidlar, oziqaviy tolalar va boshqa fiziologik funksional oziq-ovqat ingredientlari bilan boyitilgan mahsulotlarni yaratishga qaratilgan muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mahsulotlarni aynan  $\omega$ -3 guruhi yog‘ kislotalari bilan boyitish, shu bilan birga  $\omega$ -6 va  $\omega$ -3 guruhi yog‘ kislotalari, to‘yingan, monoto‘yinmagan hamda polito‘yinmagan yog‘ kislotalarining optimal nisbatini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oziq-ovqat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sohasida salmoqli muvaffaqiyatlarga erishildi va “sog‘lom” yog‘- moy mahsulotlari assortimenti sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillardagi taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>1</sup>. Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatda oziqaviy qiymat ko‘rsatkichlarining belgilangan majmuiga ega funksional oziq-ovqat mahsulotlarining innovatsion texnologiyalari va retsepturalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 avgustdagi №251 “2015-2020 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi aholisining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash Konsepsiyasini va chora-tadbirlar kompleksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4118 “Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xalqaro sanoat akademiyasi, Moskva davlat oziq-ovqat sanoati universiteti, Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining oziqlanish ilmiy-tadqiqot instituti, Butunrossiya yog‘lar ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya); International Life Sciences Institute (ILSI), Department of Technology, Shivaji University va A.D. Patel Institute of Technology (India), O‘simlik Moddalari Kimyosi ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (O‘zbekiston) va boshqa muassasalarda bir necha yillar davomida maqsadli funksional o‘simlik moylari va yog‘ mahsulotlarini ishlab chiqarish muammolari bilan shug‘ullanib kelinmoqda.

Mazkur muammolar yechimiga A.A. Pokrovskiy, F.A. V’shemirskiy, N.N. Lipatov, V.A. Tutelyan, L.G. Ipatova, A.A. Kochetkova, A.P. Nechaev, N.V. Step’cheva, S.V. Nikolaeva, S.N. Nikonovich, T.I. Timofeenko, A.I. Okara, V.N. Grigoreva, A.N. Lisis’n, I.E. Minevich, T.B. S‘ganova, L.P. Пащенко, A. Goyal, Krishna B. Gutte, K.X. Majidov, I.B. Isabaev va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Yog‘-moy mahsulotlari assortimentini muqobillashtirish hamda ularning oziqaviy qiymatini oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar aniqlandi; funksional yog‘-moy mahsulotlarini yaratishning ilmiy asoslari va texnologik usullari ishlab chiqildi; yog‘-moy mahsulotlarini boyitish uchun fiziologik funksional ingredientlar aniqlandi. Biroq, dastlab yog‘lar va moyli xom ashyolardan tuzilgan kompozit aralashmalarni qo‘llab o‘3 va o‘6 polito‘yinmagan yog‘ kislotalarining muvozanatlangan tarkibiga ega bo‘lgan funksional o‘simlik-yog‘ aralashmalarini olish imkoniyatlariga yetarlicha e‘tibor berilmagan hamda yog‘li mahsulotlarning oziqaviy qiymatini oshirishning mazkur yo‘nalishi istiqbolli imkoniyatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, ayniqsa, mahalliy o‘simlik xom ashyosi negizida dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2019062124 “Tabiiy dekontaminatlardan foydalangan holda ommaviy iste‘mol oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish” (2021-2023 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** funksional o‘simlik-yog‘ mahsulotlarini olish uchun xom ashyoning kompozit aralashmalarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sog‘lom ovqatlanish uchun yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari bo‘yicha joriy ma‘lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish;

kompozit aralashmalar uchun xom ashyo komponentlarini tanlash va asoslash; ushbu komponentlarning kimyoviy tarkibi, funksional va texnologik xususiyatlari hamda oziq-ovqat xavfsizligini tadqiq qilish;

model kompozit aralashmalardan foydalangan holda unli qandolatchilik va milliy mahsulotlarni tayyorlashning retsepturalarini va ratsional texnologiyalarini ishlab chiqish;

funksional kompozit aralashmalarining unli qandolat va milliy mahsulotlar sifati hamda oziqaviy qiymatiga ta'sirini o'rganish;

funksional o'simlik-yog' kompozitlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan mahsulotlar uchun me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish;

tadqiqot natijalarining ishlab chiqarish aprobatsiyasini o'tkazish, ishlanmalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'yektlari** sifatida moyli xom ashyo, o'simlik va hayvonot tabiatli moylar va yog'lar, kekslar, kunjut pastasi, atola olingan.

**Tadqiqotning predmetini** "Sog'lom ovqatlanish" mahsulotlari sektorini kengaytirish va ularning iste'molchilik afzalliklarini yaxshilash maqsadida moyli xom ashyo va yog'larning kompozit aralashmalaridan foydalangan holda unli qandolatchilik va milliy mahsulotlarning retseptura tarkibini yaxshilash texnologiyasini ishlab chiqish tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda umumiy hamda zamonaviy kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar, shuningdek, olingan natijalarni to'liq omilli eksperiment uslubi yordamida qayta ishlash usullarini qo'llagan holda regression tenglamalar tuzish hamda ularning adekvatligini tekshirish, natijalarni grafo-analitik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

$\omega_6$  va  $\omega_3$  polito'yinmagan yog' kislotalarining muvozanatli tarkibiga (10:1 va 5:1) ega bo'lgan unli qandolat va milliy mahsulotlar ishlab chiqarishda moyli urug'larni maydalab yog'sizlantirilmagan massalarining turli model aralashmalaridan foydalanish bo'yicha texnologik yechimlar nazariy asoslangan va ishlab chiqilgan;

retseptura komponentlarining turlari va nisbatlari mutanosiblashtirilgan moyli urug'larning yog'sizlantirilmagan massasi hamda yog' mahsulotlari (margarin) aralashmasidan iborat ikki va uch komponentli kompozitlarni qo'llash tayyor mahsulotlar funksional xususiyatlarining yaxshilanishiga ta'siri ilmiy asoslangan;

olingan funksional model aralashmalardan unli qandolat (kekslar) va milliy mahsulotlar (kunjut pastasi, atola) ishlab chiqarishda foydalanish samaradorligi isbotlangan;

emizikli ayollar ovqatlanishi uchun ixtisoslashtirilgan mahsulotlarning (atola) retseptura ingredientlari sifatida moyli zig'ir urug'ining maydalangan va yog'sizlantirilmagan massasini ishlatishning maqsadga muvofiqligi isbotlangan bo'lib, bu mahsulotning oziqaviy qiymatini oshirish, shuningdek mahsulotdagi

retsepturaviy miqdorlariga nisbatan un miqdorini 5,0 kg ga, yog‘ miqdorini 3,0-4,0 kg ga kamayishi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

moyli zig‘ir, kunjut va kungaboqar urug‘larining yanchib maydalangan massasidan foydalangan holda funksional model aralashmalarni ishlab chiqarish bo‘yicha retsepturalar va texnologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

funksional model aralashmalardan foydalangan holda unli qandolat va milliy mahsulotlar ishlab chiqarish retsepturalari va texnologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

funksional unli qandolatchilik va milliy mahsulotlar ishlab chiqarishda tadqiq qilinayotgan moyli xom ashyolardan foydalanishning amaliy maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy samaradorligi tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishlab chiqarish aprobatsiyasi natijalari, shuningdek, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarning asosiy sifat ko‘rsatkichlarini baholashning zamonaviy sensorli va fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanish va shuningdek tadqiqot natijalari ishlab chiqarish aprobatsiyasi natijalari bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unli mahsulotlar uchun  $\omega_6$  va  $\omega_3$  oilasi to‘yinmagan yog‘ kislotalarining optimal nisbatiga ega yangi turdagi funksional o‘simlik-yog‘ mahsulotlarini yaratishda yog‘lar va moyli xom ashyolarning kompozit model aralashmalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini va iqtisodiy samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish mahalliy moyli xom ashyodan foydalanish hisobiga oziqaviy qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar olish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Unli mahsulotlar ishlab chiqarishda yog‘lar va moyli urug‘larning yanchib maydalangan hamda yog‘sizlantirilmagan massasidan olingan kompozit model aralashmalaridan foydalanish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Salomatlik” kekslarini ishlab chiqarish usuli “Oltin Boshqoq Issiq Noni” va Yuksak Qashqadaryo MChJlarda joriy qilingan (“O‘zdonmahsulotlari” AKning 2023 yil 5 sentabrdagi 6-1-2/591-886-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bu qaymoqli margarinning retseptura miqdorini 20,0% ga va navli bug‘doy uni retseptura miqdorini 5,0% ga kamaytirish imkonini bergan;

“Shifobaxsh” kunjut pastasini ishlab chiqarish usuli “Oltin Boshqoq Issiq Noni” MChJda joriy qilingan (“O‘zdonmahsulotlari” AKning 2023 yil 5 sentabrdagi 6-1-2/591-886-sonli ma’lumotnomasi). Natijada kunjutning retseptura miqdorini 10,0 dan 30,0% gacha kamaytirish imkonini paydo bo‘lib, bu mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini bergan;

“Buxoro yangi” atolasini ishlab chiqarish usuli “Pasquale” MChJda joriy qilingan (“O‘zdonmahsulotlari” AKning 2023 yil 5 sentabrdagi 6-1-2/591-886-

sonli ma'lumotnomasi). Natijada bu un sarfini o'rtacha 5,0% ga, yog' sarfini retsepturaviy miqdoriga nisbatan 3,0 ( $\omega_6:\omega_3=10:1$  uchun) va 4,0% ( $\omega_6:\omega_3=5:1$  uchun) ga kamaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza shaklida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining chop etilishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda, 2 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish qismida** muammoning joriy holati qisqacha tavsiflangan; tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, uning maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi hamda davlat dasturlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan; olingan ishlanmalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sog'lom ovqatlanish uchun yog' mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish zamonaviy tendensiyalarining analitik sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida inson ovqatlanishida yog'-moy mahsulotlarining ahamiyati haqidagi zamonaviy g'oyalar bayon etilgan va tahlil qilingan. Yog'-moy mahsulotlarining oziqaviy qiymati va xavfsizligini oshirishning istiqbolli va dolzarb yo'nalishlari tahlil qilingan. Tegishli natijalar va xulosalar keltirilgan.

**“Tadqiqot ob'ektlari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobda tadqiqot va taqqoslash ob'ektlari ko'rib chiqilgan; xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar sifatini baholashning organoleptik, fizik-kimyoviy, toksikologik va mikrobiologik usullari, hamda tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish uchun analitik usullar keltirilgan. Kekslar, kunjut (sezam) pastasi hamda un-yog'li aralashma – atola tayyorlash usullari bayon qilingan. Tajriba ma'lumotlarini statistik qayta ishlash usullari keltirilgan (1-rasm).

**“O'rganilayotgan xom ashyoning kimyoviy tarkibi va texnologik potensialini qiyosiy tahlil qilish”** deb nomlangan uchinchi bobda moyli urug'lar tahlili bajarilgan hamda funksional yog' mahsulotlari bozori segmentini kengaytirish maqsadida ulardan foydalanish istiqbollari asoslangan. Moyli zig'ir, kunjut va kungaboqar urug'larining kimyoviy tarkibi qiyosiy tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida yetishtiriladigan tadqiq qilinayotgan ekinlar urug'larining kimyoviy tarkibini o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiq qilinayotgan xom ashyodan olingan kompozit aralashmalardan unli qandolat

mahsulotlari va milliy oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida hayvon yog'lariga muqobil sifatida foydalanish imkoniyati aniqlangan.  $\omega 6$  va  $\omega 3$  polito'yinmagan yog' kislotalari nisbati bo'yicha moyli ekinlar urug'lari va hayvon yog'lari (moylari) dan olingan kompozit (model) aralashmalar tarkibini hisoblash uchun ishlab chiqilgan tenglamalar tizimini yechish algoritmi keltirilgan.



**1-rasm. Tadqiqotning tuzilish-mantiqiy sxemasi**

*Moyli ekinlar urug'larining sifati va oziqaviy qiymatini tahlil qilish.* O'zbekiston Respublikasida yetishtiriladigan moyli ekinlar urug'larining sifat ko'rsatkichlari va kimyoviy tarkibi ulardan funksional o'simlik-yog' kompozit aralashmalar tarkibida foydalanish imkoniyati va samaradorligini asoslash maqsadida tadqiq qilindi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida kunjut urug'lari (GOST 12095-76. Qayta ishlash uchun kunjut. TSh), moyli zig'ir (GOST 10582-76. Moyli zig'ir urug'lari. Sanoat xom ashyosi. TSh) va moyli kungaboqar urug'lari (GOST 22391 - 2015. Kungaboqar. TSh) hizmat qildi.

Ilmiy ishda "Zamona Rano" MChJ da olingan "Toshkent-122" navli kunjut urug'lari (*Sesamum indicum*), "Baxmal-2" navli moyli zig'ir urug'lari (lot. *Linum usitatissimum* L.) hamda O'zbekistonda seleksiyalangan va boshqa mahalliy navlarga nisbatan ko'proq yetishtiriladigan "Dilbar" navli kungaboqar urug'laridan foydalanildi.

Moyli ekinlarning tadqiq qilinayotgan turlari quruq va issiq iqlimli hamda sug'orish suvlari tanqisligi bilan belgilanadigan O'zbekiston hududlari uchun istiqbolli bo'lib hisoblanadi, chunki qurg'oqchilikka barqarorligi bilan bir qatorda yuqori hosildorligi va nisbatan qisqa vegetatsion davri bilan tavsiflanadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Kunjut, zig'ir va kungaboqar urug'larining vegetativ belgilari va sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar qiymatlari		
	"Toshkent-122" navli kunjut	"Baxmal-2" navli zig'ir	"Dilbar" navli kungaboqar
Etalon yoki gibrid kombinatsiyasi	Ma'lumot aniqlanmagan	Baxmal-1056	HS-H-45 (Serbiya)
O'rtacha hosildorlik, s/ga	5,0 – 6,0	5,9 – 7,8	300 - 330
Vegetatsion davri, kun	90 - 95	74 – 77	110 - 120
Qurg'oqchilik, yerga yastanib qolish va to'kilishga chidamligi	Yuqori	Yuqori	Yuqori
1000 ta urug' massasi, g	2,63 ±0,32	6,45±0,25	68,12±0,31
Urug'lar o'lchami, mm	2,8-3,2	3,2-4,8	7,0-13,0
Urug'lar rangi	Och-jigarrang	Jigarrang	Qora
Tozaligi, %	99,4±0,2	98,7±0,1	97,9±0,5
Namligi, %	4,30±0,50	5,60±0,35	6,80±0,45
Moyining kislota soni, mg KON/g	0,9±0,1	1,2±0,3	1,5±0,2
Nisbiy zichligi, g/sm <sup>3</sup>	1,084±0,019	1,055±0,014	0,724±0,086
Tabiiy qiyalik burchagi, daraja	27±3	30±3	38±7

Tadqiq qilinayotgan moyli xom ashyo turlarining urug'lari "toza" va quruq (8,0% gacha namlik) deb tavsiflanishi mumkinligi aniqlandi.

Urug'larning kimyoviy tarkibi 2-jadvalda kelirilgan. Urug'larning kimyoviy tarkibini qiyosiy tahlil qilish tadqiq qilinayotgan urug'lardagi oqsilning massa ulushi (QM ga hisoblaganda) sezilarli farqlarga ega emasligini ko'rsatdi. Kutilganidek, moyning eng katta miqdori kungaboqar urug'larida aniqlandi.

Kunjut urug'larida kletchatka (oziqaviy tola) miqdori zig'ir va kungaboqar urug'laridagiga nisbatan mos ravishda 3,3 va 3,0 martaga sezilarli darajada pastdir. Kunjut urug'lari eng yuqori kaloriyaligi bilan ajralib turdi, bu ko'rsatkich zig'ir urug'larida eng kichik qiymatni ko'rsatdi. Kalsiy, fosfor va temirning maksimal

miqdori kunjut urug'larida, magniyning maksimal miqdori esa zig'irda kuzatildi. Shu bilan birga, kungaboqar urug'larida kunjut va zig'ir urug'iga qaraganda E vitamini kabi kuchli antioksidant deyarli 1,8 baravar ko'pdir. Ta'kidlash joizki, zig'ir urug'larining o'ziga xosligi nafaqat ularning  $\omega 3$  PTYoK manbai ekanligi, balki selenni o'zlashtirishi (assimilyatsiyasi) bilan belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'rganilayotgan xom ashyo turlarining har biri noyob fiziologik muhim nutrientlarni o'zida saqlaydi, shu sababli ularni kompozit aralashmalar shaklida qo'llash ko'plab alimantar-bog'liq kasalliklarning oldini olishda ularning fiziologik ahamiyatini yanada oshiradi.

## 2-jadval

### Tadqiq qilinayotgan moyli xom ashyoning kimyoviy tarkibi

Nutrientlar	Urug'lardagi ko'rsatkich qiymati					
	Kunjut		zig'ir		kungaboqar	
	100 g mahsulotda	100 g QM da	100 g mahsulotda	100 g QM da	100 g mahsulotda	100 g QM da
Oziqaviy moddalar, g:						
suv	4,30	-	6,50	-	6,80	-
oqsillar	21,00	22,00	19,20	20,60	19,80	21,24
uglevodlar	18,30	19,10	17,40	18,60	2,34	2,51
yog'lar	49,00	51,20	36,20	38,70	52,84	56,70
kletchatka	5,10	5,30	16,20	17,30	14,50	15,55
kul	2,30	2,40	4,50	4,80	3,72	4,00
Mineral moddalar, mg:						
kalsiy	360	376	248	265	267	286
magniy	345	360	372	398	328	352
fosfor	667	697	625	648	675	724
temir	6,4	6,7	5,8	6,2	6,0	6,4
Vitaminlar, mg:						
tiamin, V <sub>1</sub>	0,75	0,78	1,57	1,70	1,56	1,67
riboflavin, V <sub>2</sub>	0,28	0,29	0,15	0,16	0,32	0,34
niatsin, RR	4,50	4,70	2,84	3,04	7,30	7,83
tokoferollar, Ye	19,17	20,03	18,65	19,95	34,30	36,80
Energetik qiymat, kkal	593,6	-	467,8	-	559,2	-
Farqlovchi kichik miqdordagi (minor) komponentlar	Sezamin, sezamolin, sezamol, tokoferol, tokotrienollar, Fitosterol		Tokoferollar ( $\beta^+$ $\gamma$ ), $\beta$ -sitosterin, karotin va karotinooidlar, selen, fosfatidilxolin		Fitosterollar ( $\beta$ -sitosterol), purinlar, oksalat kislotasi	

Kompozit aralashmalarni ishlab chiqish uchun asosiy ingredient sifatida zig'ir urug'i tanlandi, chunki ular  $\omega 3$  guruhiga mansub PTYoKning tengsiz manbaidir.

Keyingi tadqiqotlar o'rganilayotgan ekin urug'lari moylarining yog' kislota tarkibini aniqlash bo'yicha o'tkazildi.

O'simlik-yog' kompozitsiyasi komponentlari sifatida tanlangan ekin urug'lari moylarining va margarinning yog' kislota tarkibi o'rganildi va natijalar 3-jadvalda keltirildi.

### 3-jadval

#### O'simlik-yog' kompozitsiyasi komponentlarining yog' kislota tarkibi (% da)

Yog' kislota nomi	Yog' kislotalari miqdori, umumiy miqdorga nisbatan % da			
	“Baxmal-2” zig'iri (moyliligi 36,2%)	“Toshkent-122” kunjuti (moyliligi 49%)	“Dilbar” kungaboqari (moyliligi 52,8%)	margarin (yog'liligi 82%)
Palmitin, C <sub>16:0</sub>	6,65	7,32	6,13	17,93
Stearin, C <sub>18:0</sub>	4,95	5,16	5,28	13,21
Olein, C <sub>18:1</sub>	24,46	41,52	27,23	26,52
Elaidin C <sub>18:1</sub>	-	-	-	13,19
<b>Linol, C<sub>18:2</sub> (<math>\omega 6</math>)</b>	<b>16,81</b>	<b>45,77</b>	<b>61,15</b>	<b>24,45</b>
<b>Linolen, C<sub>18:3</sub> (<math>\omega 3</math>)</b>	<b>47,13</b>	<b>0,23</b>	<b>0,21</b>	<b>1,19</b>
Eruk C <sub>22:1</sub>	-	-	-	2,24
Boshqa yog' kislotalari	-	-	-	1,27
$\Sigma$ to'yingan (TYK)	11,60	12,48	11,41	31,14
$\Sigma$ monoto'yinmagan (MTYoK)	24,46	41,52	27,23	39,71
$\Sigma$ polito'yinmagan (PTYoK)	63,94	46	61,36	29,15
TYoK:MTYoK:PTYoK nisbati	1 : 2,1 : 5,5	1 : 3,3 : 3,7	1 : 2,4 : 5,4	1 : 1,3 : 0,9
$\omega 6$ : $\omega 3$ nisbati	0,35:1	199:1	291:1	21:1

Dissertatsiyaning “**Funksional maqsadli o'simlik-yog' mahsulotlari uchun turli model aralashmalardan foydalangan holda unli mahsulotlarning retsepturasi va texnologiyasini takomillashtirish**” deb nomlangan to'rtinchi bobida keks va atola uchun o'simlik-yog' aralashmalarini ishlab chiqarishda qattiq yog'larning retseptura miqdorini kamaytirish, shuningdek, kunjut pastasining oziqaviy qiymati va xavfsizligini oshirish, mahalliy moyli o'simlik xom ashyosi asosida xom ashyo bazasini kengaytirish va undan oqilona foydalanish maqsadida moyli xom ashyo va qattiq (plastik) yog'lardan tayyorlangan model aralashmalarni qo'llash samaradorligini o'rganish natijalari keltirilgan.

Yog'larning retseptura komponentlarini moyli ekinlar urug'larning modellashtirilgan aralashmasi bilan almashtirishning keks sifatiga ta'sirini o'rganish. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi moyli urug'larning maydalab ezilgan yog'sizlantirilmagan massasini qo'llab tayyorlangan model aralashmalar yordamida kekslar ishlab chiqarish retsepturasi va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda asosiy vazifa “Salomatlik” (retseptura №465) keksining kimyoviy tarkibini muhim yog' kislotalari va kichik miqdordagi (minor)

faol nutrientlar bilan boyitish hamda keks retsepturasidagi margarinni qisman almashtirish maqsadida moyli zig'ir, kunjut va kungaboqar urug'larining yog'sizlantirilmagan massasidan foydalanish imkoniyatini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Bunda tadqiqot ob'ekti bo'lib kunjut, zig'ir hamda kungaboqar urug'larini maydalab ezilgan, yog'sizlantirilmagan massalarining model aralashmalari bilan margarinni qo'llab va an'anaviy texnologiya bo'yicha achitqi yordamida oparali usulda yetiltirilgan xamirda tayyorlangan "Salomatlik" keksining bazaviy retsepturasi (GOST 15052-2014. Kekslar. Umumiy texnik shartlar) xizmat qildi.

Ilmiy ishda maydalab ezilgan, yog'sizlantirilmagan moyli urug'larni aralashtirish va/yoki ularni turli yog' kislota tarkibiga ega modifikatsiyalangan qattiq yoki hayvon yog'lari bilan kombinatsiyalash orqali o'simlik-yog' kompozit aralashmalari tarkibini optimallashtirish usulidan foydalanildi.

Tadqiq qilinayotgan moyli ekinlarning maydalab ezilgan, yog'sizlantirilmagan urug' massalari asosida yangi turdagi kompozit aralashmalarni olishning ishlab chiqilgan tarkiblari va usullari  $\omega_6$  va  $\omega_3$  turkumlaridagi muhim PTYoKning gipotetik "ideal" nisbati – 10:1 va 5:1 ga juda yaqinligi bilan ajralib turadi.

Yog' saqlagan xom ashyoning yangi turdagi model aralashmalari (MA) tarkiblari 4-jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, MA da moylari linol-olein (kunjut, kungaboqar) va linolen-olein (zig'ir) guruhlariga mansub moyli ekinlar ishlatilgan. Olingan MA-1 kompozitsiyasida TYK:MTYoK:PTYoK nisbati margarinniki bilan taqqoslaganda salbiy tomonga o'zgaradi (TYK:MTYoK:PTYoKning optimal nisbati – 1:1:1 hisoblanadi).

#### 4-jadval

##### Kompozit aralashmalarning model tarkibi

Komponent	$\omega_6$ va $\omega_3$ nisbatidagi kompozit aralashmaning model tarkibi		
	MA-1	MA-2	MA-3
Margarin	94,1	80,0	80,0
Moyli zig'ir urug'i	5,9	6,7	7,75
Kunjut	-	13,3	-
Kungaboqar urug'i	-	-	12,25
Yog' kislota tarkibi, %			
Yog'liligi, %	79,3	74,5	74,8
TYK	12,75	27,30	27,20
MTYoK	25,36	38,90	37,0
PTYoK	61,89	33,80	35,8
TYoK:MTYoK:PTYoK nisbati	1,0: 2,0: 4,8	1,0: 1,4 : 1,2	1,0: 1,4 : 1,3
$\omega_6$ : $\omega_3$ nisbati	10:1	10:1	5:1

Kunjut moyida odatda olein kislotasi yuqori miqdorda bo'lishini hisobga olgan holda, margarin, maydalangan yog'sizlantirilmagan zig'ir urug'i massasi bilan birga kunjut massasi ham qo'shilgan aralashmadan iborat bo'lgan TYK:MTYoK:PTYoK nisbati bo'yicha yanada muvozanatlangan uch komponentli o'simlik-yog' kompozitsiyasini taklif qilish mumkin. Bunda margarinning ulush


miqdori retseptura bo'yicha MA-2 kompozitsiyasi komponentlari miqdoriga nisbatan 80,0% ni tashkil qiladi deb belgilandi.

Tayyor o'simlik-yog' aralashmalari xamirga uni qorish paytida qo'shildi. Kekslarning sifati pishirilgandan so'ng 16 soat o'tgandan keyin GOST 15052-2014 talablariga muvofiqi bo'yicha organoleptik (sensor) va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha baholandi.

Kekslarning sifati va oziqaviy qiymatini tadqiq qilish natijalari 2-rasm va 4-jadvalda keltirilgan.

Sifatni organoleptik baholashda MA-1 va MA-2 qo'shib tayyorlangan kekslar maksimal, ya'ni 28 ball, MA-3 va MA-4 qo'shib tayyorlanganlari 26 ball, nazorat namunalari esa 23 ball olganligi aniqlandi. Kekslarning tajriba namunalari nazorat mahsulotlaridan quyidagi ko'rsatkichlari bo'yicha ustunligi namoyon bo'ldi: mag'zining tuzilishi va teksturasi – mos ravishda 8 va 7 ball (nazorat qiymati 6 ball), ta'mi va hidi – nazorat qiymati 9 ball bo'lgani holda mos ravishda 12 va 11 ball (2-rasm).

Sinov namunalari zichligining nazorat namunasiga nisbatan o'rtacha 7,1 dan 5,4% gacha kamayishi aniqlandi. Bu holni qo'shimchalardagi oziqaviy tolalarning yuqori barqarorlashtiruvchi qobiliyati va oqsil moddalarining yuqori miqdori hisobidan xamirning gazni ushlab turish qobiliyati oshishi bilan tushuntirish mumkin.



**2-rasm. Kekslar sifatining organoleptik ko'rsatkichlari:**

1 – shakli, 2 – rangi va tashqi ko'rinishi, 3 – tuzilishi, 4 – ta'mi va hidi

Kekslar oziqaviy qiymatini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tajriba namunalarida mos ravishda yog'lar miqdori 4,3 - 3,2% ga, uglevodlar miqdori 1,6 - 1,1% ga kamaydi, oqsillar miqdori 31,2 - 25,7% ga, oziqaviy tolalar miqdori 5,6 - 4,4 martaga oshdi. Energetik qiymat o'rtacha 0,27% ga kamaydi. Kekslar sinov namunalarida mineral tarkibning Ca:R nisbati va PTYoK da  $\omega_6:\omega_3$  turkum kislotalarining nisbati yaxshilandi (5-jadval).


Kompozit MA larni ishlab chiqarishga tayyorlash 3-rasmda keltirilgan sxema

bo'yicha amalga oshirilgan.

5-jadval

### Kekslarning oziqaviy va energetik qiymati

Nutrient	100 g keksdagi miqdori						
	<i>nazorat</i>	<i>MA – 1 bilan</i>		<i>MA – 2 bilan</i>		<i>MA – 3 bilan</i>	
	<i>g/100 g</i>	<i>g/100 g</i>	$\pm\Delta$	<i>g/100 g</i>	$\pm\Delta$	<i>g/100 g</i>	$\pm\Delta$
Oqsillar	7,05	9,25	+2,20	9,21	+2,17	8,86	+1,81
Yog'lar	14,23	13,56	-0,67	13,50	-0,73	13,78	-0,25
Uglevodlar	52,87	52,05	-0,82	52,12	-0,75	52,32	-0,55
Oziqaviy tolalar	0,05	0,28	+0,23	0,30	+0,25	0,22	+0,17
<i>Mineral moddalar, mg/100 g</i>							
- kaliy	128	132	+4	135	+7	130	+2
- natriy	93	91	- 2	90	- 3	88	- 5
- kalsiy	36	45	+9	47	+11	41	+5
- magniy	23	28	+5	28	+5	25	+2
- fosfor	128	135	+7	137	+9	131	+3
Ca : R (1,0 :1,5)	1,0 :4,3	1,0 :3,0	-	1,0 :2,9	-	1,0 :3,2	-
Energetik qiymati, kkal	366	365	- 1	365	- 1	366	-



**3-rasm. Moyli xom ashyoni ishlab chiqarishga tayyorlashning prinsipial sxemasi**

Ta'kidlash joizki, kungaboqar urug'lari uchun yuvish, tozalash va qobiqni ajratish bosqichlari nazarda tutilgan, kunjut urug'larining qobig'i (po'stlog'i) ajratilmaydi, zig'ir urug'lari uchun esa yuvish o'rniga quruq havoli aspiratsion separatsiya bosqichi ko'zda tutilgan.


Ilmiy ishda tajribani matematik rejalashtirishning PFE  $2^3$  usulidan foydalanildi. O'zgaruvchan omillar sifatida quyidagi omillar tanlandi: moyli zig'ir urug'i massasining dozirovkasi ( $X_1$ ) va kunjut urug'i massasining dozirovkasi ( $X_2$ ) margarin massasiga nisbatan % larda. Chiqish parametrlari: organoleptik sifat ko'rsatkichlari ( $y_1$ , ball) va kekslar zichligi ( $y_2$ , g/sm<sup>3</sup>).

Ortogonal rejalashtirish matritsasining tajriba ma'lumotlarini qayta ishlash natijasida quyidagi regressiya tenglamalari (1, 2) olindi:

$$y_1 = 14,58 - 0,45x_1 - 0,18x_2 - 0,45x_1^2 + 0,05x_1x_2 - 0,85x_2^2 \quad (1)$$

$$y_2 = 0,49 - 0,02x_1 - 0,01x_2 - 0,03x_1^2 + 0,04x_1x_2 - 0,03x_2^2 \quad (2)$$

Olingan tenglamalar bo'yicha alohida xususiy holatlar uchun javob sirtlari qurildi (4-rasm).



**4-rasm. Kekslarning organoleptik sifat ko'rsatkichlariga (a) va zichligiga (b) model aralashmalar tarkibi ( $x_1, x_2$ ) dozirovkasining ta'siri**

Yuqori oziqaviy qiymatga ega "Salomatlik" kekslari uchun ishlab chiqarish retsepturalari ishlab chiqildi.

*Kunjut va zig'ir urug'larining yog'sizlantirilmagan massalaridan tayyorlangan kompozit aralashmaning pasta oziqaviy qiymatiga ta'siri.* Ajoyib ta'm xususiyatlari va barqaror yuqori iste'mol talabiga ega bo'lgan o'simlik-yog' mahsulotlaridan biri bo'lib taxini yoki kunjut (sezam) pastasi hisoblanadi, an'anaviy variantda u birgina faqat kunjut urug'larining yanchib tayyorlangan massasidan iborat. Ushbu pastaning asosiy kamchiligi  $\omega_3$ , xususan  $\alpha$ -linolen kislotasining juda kam miqdori bilan belgilanadi. Binobarin, mazkur mahsulotdagi muhim yog' kislotalar tarkibini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Kunjut pastasini, shuningdek, o'simlik moyi qo'shib ham tayyorlashadi. Tadqiqotlarimizda kunjut pastasi retsepturaga asosan 100 g yanchib maydalangan kunjut massasiga 15 g rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan o'simlik moyini aralashtirib tayyorlandi (nazorat), sinov namunalari esa kunjut va zig'ir massalaridan tayyorlandi.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, tanlangan kunjut va zig'ir urug'laridan  $\omega_6$ :  $\omega_3=10$  nisbatda pasta olish uchun kunjut va zig'ir urug'larining 0,917:0,083 (kg yoki %) ga teng massa nisbatiga rioya qilish lozim. Davolash maqsadli, masalan,  $\omega_6$  :  $\omega_3 = 3$  yoki 5 nisbatda pastani olish uchun tanlangan urug'larning mos ravishda 0,7:0,3 yoki 0,815:0,185 ga teng massa nisbatiga rioya qilish lozim.

Organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha kunjut urug'idan tayyorlangan (nazorat) hamda kunjut va zig'ir urug'larining 0,7:0,3 nisbatdagi model aralashmasi sifatida tayyorlangan (tajriba) pastalar TSh 10.39.22-2019 da ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak (6-jadval).

Tajriba ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, sifat va oziq-ovqat xavfsizligining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha kunjut va zig'ir urug'larining model aralashmasidan olingan pasta TSh 10.39.22-2019, TR TS 021/2011 (1-3 ilovalar) va O'zbekiston Respublikasining SanPiN №0366-19 talablariga javob beradi.

Tadqiqot natijalari asosida kunjut va moyli zig'ir urug'laridan "Shifobaxsh" pastasini ishlab chiqarish retsepturasi ishlab chiqildi.

## 6-jadval

### Kunjut urug'laridan (nazorat) hamda kunjut va zig'ir urug'larining model aralashmasidan (tajriba) olingan pastaning asosiy sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	TSh 10.39.22-2019 talablari	Pasta sifatining ko'rsatkichlari qiymati	
		<i>Nazorat</i>	<i>Tajriba</i>
Tashqi ko'rinishi	Quyuyq yog'li pasta, retseptura tarkibiga qarab qo'shimchalarga ega bo'lishi mumkin	Quyuyq yog'li pasta, kremli tekstura bilan, yaqqol qo'shimchalarsiz	
Ta'mi	Tayyorlashda ishlatilgan xom ashyoning tabiiy ta'miga muvofiq	Xos, begona ta'mlarsiz achchiqlikning yengil notasi bilan	Xos, begona ta'mlarsiz yengil yong'oq ta'mi bilan
Hidi	Pastaga xos, begona hidsiz		
Rangi	Och-sariqdan jigarrangacha. Retsepturaga muvofiq qo'shimchalarning zarralari bo'lishiga ruxsat beriladi	Krem	Och-jigarrang
Shikastlangan urug'lar, % dan ko'p emas	3,0	Aniqlanmagan	Aniqlanmagan
Namlik massa ulushi, % dan ko'p emas	20,0	3,4±0,3	3,8±0,2
Yog' massa ulushi, % dan kam emas	20,0	48,2±0,1	44,3±0,2

Kunjut urug'ining bir qismi moyli zig'ir urug'i bilan almashtirilganda pastadagi quruq moddalarning massa ulushi qiyoslash namunasiga qaraganda o'rtacha 2,0 dan 6,0% gacha kamayishi aniqlandi. Mazkur natija zig'ir urug'ining bir oz yuqori namligi bilan belgilanib, ushbu holatda bu jihat muhim emas, chunki xom ashyoning namligi nisbatan keng oraliqda o'zgarib turishi mumkin.

*Maxsus maqsadli un-yog'li aralashmalarni ishlab chiqarish texnologiyasida zig'ir urug'idan foydalanish.* O'rta Osiyo respublikalarida, jumladan, O'zbekistonda "atola" yoki "unli sho'rva" deb ataladigan un-yog'li aralashma asosida tayyorlangan maxsus taom keng qo'llaniladi.

Atolaning asosiy ingredientlarini mos ravishda 1,0:0,4:1,8 (2,0) nisbatdagi

bug'doy uni, eritilgan qo'y yog'i (eritilgan sariyog' ruxsat etiladi) va suv tashkil qiladi. Aralashma  $60 \pm 2\%$  namlikkacha qaynatiladi.

Mazkur bosqichda tadqiqotning maqsadi yanchib maydalangan moyli zig'ir urug'ining yog'sizlantirilmagan massasidan (bundan keyin zig'ir massasi (ZM)) foydalangan holda (7-jadval) atola turidagi un-yog'li aralashmalarni tayyorlash retsepturasini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Funktsional yog'-un aralashmasini tuzish uchun qo'y yog'i va kungaboqar moyini (*O'YoA*-o'simlik-yog' aralashmasi), shuningdek eritilgan sariyog' va kungaboqar moyini (*O'QA*-o'simlik-qaymoq aralashmasi) mos ravishda, 2:1 nisbatda aralashtirildi.

$\omega_6$  va  $\omega_3$  turkum PTYoK nisbatini muqobillashtirish maqsadida ushbu yog'li aralashmalarga moyliligi 39,0% bo'lgan ZM qo'shildi (7-jadval).

**7-jadval**

**Yog'larning, moylarning, yanchib maydalangan urug' massalarining va kompozitsion aralashmalarning yog' kislotalari massa ulushi, %**

Yog' kislotalari	Namunalar										
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
	Qo'y yog' i (QYo)	Eritilgan sariyog' (ES)	Zig'ir moyi (ZMo)	Kungaboqar moyi (KM)	Zig'ir massasi, yog' iligi 39% (ZM)	<i>O'YoA</i> (KM+QYo = 1:2)	<i>O'QA</i> (KM+ES = 1:2)	<i>O'YoA</i> + ZMo=33:1 aralashmasi	<i>O'QA</i> + ZMo = 35:1 aralashmasi	<i>O'YoA</i> + ZM=13:1 aralashmasi	<i>O'QA</i> + ZM= 14:1 aralashmasi
To'yingan (TYoK)	55,0	62,2	10,6	11,3	4,13	40,43	45,2	39,6	44,2	38,3	42,5
Monoto'yinmagan (MTYoK)	40,5	33,1	26,4	26,4	10,3	35,8	30,9	35,5	30,8	35,1	29,5
Polito'yinmagan (PTYoK):											
- linol ( $\omega_6$ )	3,32	3,41	14,50	62,11	5,51	22,90	22,70	22,70	22,50	21,60	21,50
- linolen ( $\omega_3$ )	1,20	1,32	48,53	0,22	8,70	0,87	0,93	2,27	2,25	2,14	2,10
$\omega_6:\omega_3$ nisbati	2,75:1	2,61:1	0,3:1	310,5:1	0,3:1	26,3:1	24,4:1	10:1	10:1	10,1:1	10,2:1

**Izoh:** *O'YoA* – o'simlik-yog' aralashmasi, 1:2 nisbatda kungaboqar moyi va hayvon(qo'y) yog'idan ( $KM + QYo = 1:2$ ); *O'QA* – o'simlik-qaymoqli aralashma, 1:2 nisbatda kungaboqar moyi va eritilgan sariyog'dan ( $KM + ES = 1:2$ )

Hisob-kitoblar natijasi shuni ko'rsatadiki, *O'YoA:ZM* = 13:1 va *O'QA: ZM* = 14:1 nisbatlari PTYoK  $\omega_6:\omega_3 \approx 10:1$  bo'lgan zarur nisbatlarini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari asosida moyli zig'ir urug'i massasi qo'shilgan "Buxoro yangi" atolasining ishlab chiqarish retsepturasini ishlab chiqildi.

Tadqiq qilinayotgan moyli ekin urug'lari massasini keks ishlab chiqarishda qo'llashdan kutilayotgan foyda har 1 t tayyor mahsulotdan 240339 dan 440389 gacha so'mni tashkil qiladi, ishlab chiqarish rentabelligi esa o'rtacha 1,1 dan 2,76% gacha oshadi; pasta ishlab chiqarishda – mos ravishda har 1 t tayyor

mahsulotdan 141168 dan 341268 gacha so'mga, rentabellik 5,34 dan 6,28% gacha oshadi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Sog'lom ovqatlanish uchun yog'-moy mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi va tizimlashtirildi.

2. Moyli ekinlar (moyli zig'ir, kunjut, kungaboqar) urug'larining yog'sizlantirilmagan massasidan unli mahsulotlar (pishiriqlar) va kunjut pastasi asosiy retseptura ingredientlarining (navli bug'doy uni, qattiq yog'lar) sarfini kamaytirish va funksional xususiyatlarini kuchaytirish maqsadida foydalanish samaradorligi ilmiy asoslandi.

3. Kunjut, moyli zig'ir va kungaboqar urug'larining yanchib maydalangan massasidan margarin bilan birgalikda  $\omega_6$  va  $\omega_3$  turkum PTYoK nisbati bo'yicha mutanosiblashtirilgan (10:1 – MA-1, MA-2 va 5:1 – MA-3) model kompozit aralashmalari kekslarning asosiy funksional xususiyatlarini kuchaytirish uchun modellashtirildi.

4. Maydalangan yog'sizlantirilmagan moyli zig'ir urug'i massasidan foydalangan holda kunjut (sezam) pastasini tayyorlash retsepturasi va texnologiyasi takomillashtirilib, bu pasta tarkibini  $\omega_3$  va  $\omega_6$  miqdori bo'yicha mutanosiblashtirish qimmatli kunjut sarfini retseptura miqdoriga qarab 10,0% ga ( $\omega_6:\omega_3=10:1$  uchun) va 30,0% ga ( $\omega_6:\omega_3=5:1$  uchun) kamaytirish imkonini berdi.

5. Atola kabi un-yog'li aralashmaning retsepturasida yog'sizlantirilmagan zig'ir urug'idan olingan massadan foydalanish un sarfini o'rtacha 5,0% ga, yog' sarfini retsepturaviy miqdoriga nisbatan 3,0 ( $\omega_6:\omega_3=10:1$  uchun) va 4,0% ( $\omega_6:\omega_3=5:1$  uchun) ga kamaytirish imkonini berdi.

6. Keks, pasta va atola tayyorlashning takomillashtirilgan retsepturalari va texnologiyalariga texnik hujjatlar to'plamlari tayyorlandi, sanoat aprobatsiyasi o'tkazildi, yog' kislotalari tarkibi mutanosiblashtirilgan mahsulotlarni sanoatda ishlab chiqarishdan kutilayotgan iqtisodiy samara aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ  
ИНЖЕНЕРНО - ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО - ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ХУДАЙКУЛОВ АНВАР ШАВКАТОВИЧ**

**РАЗРАБОТКА КОМПОЗИТНЫХ СМЕСЕЙ СЫРЬЯ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ  
ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ЖИРОВЫХ ПРОДУКТОВ**

**02.00.17 – «Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки  
сельскохозяйственных и пищевых продуктов»**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Бухара – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттеста-ционной комиссии при Министерстве высшего образования, наука и инноваций Рес-публики Узбекистан под номером B2022.2.PhD/T664.**

Докторская диссертация выполнена в Бухарском инженерно - технологическом институте. Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)), на веб – странице Научного совета ([www.bmti.uz](http://www.bmti.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Джураева Нафиса Раджабовна</b> докт. фил. по тех. наукам (PhD), доцент.
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Курбонов Жамшед Маджидович</b> доктор технических наук, профессор <b>Джахангилова Гулноза Зинатуллаевна</b> докт. фил. по тех. наукам, профессор.
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Гулистанский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится 19 декабря 2023 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте (Адрес: 200117, г.Бухара, ул. К.Муртазаева, 15. Тел.: (+99865)223-78-84, факс: (+99865)223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрирован под номером №448). (Адрес: 200117, г.Бухара, ул. К.Муртазаева 15. Тел: (+99865)223-78-84).

Автореферат диссертации разослан 01-декабря 2023 г.  
(протокола рассылки № 31 от 15-сентября 2023 г.).

**С.Ф. Фозилов**

Заместитель председателя Научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., проф

**Р.Р. Хайитов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., старший научный сотрудник

**И.Б. Исабаев**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., проф.

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в настоящее время из-за развития глобального экологического кризиса отмечается увеличение спроса на функциональные продукты питания с высокими показателями пищевой ценности и критериями безопасности, способных улучшать функции иммунной защиты и предупреждать развитие алиментарно-зависимых заболеваний. Особое внимание уделяется жирам и жировым продуктам. Данная продукция, широко представленная на международном и отечественном рынке, не в полной мере удовлетворяет потребности организма человека, особенно в полиненасыщенных жирных кислотах - линолевой ( $\omega 6$ ) и линоленовой ( $\omega 3$ ), поэтому вполне обоснованно является важным объектом обогащения с целью получения нутритивно адекватных продуктов.

В мире проводятся важные научные исследования по созданию продуктов с высокой пищевой ценностью, улучшенным содержанием жирных кислот и обогащенных витаминами, незаменимыми микроэлементами, флавоноидами, пищевыми волокнами и другими физиологически функциональными пищевыми ингредиентами. В связи с этим важно обогащать продукты жирными кислотами  $\omega$ -3 группы и при этом особое внимание уделяется обеспечению оптимального соотношения жирных кислот  $\omega$ -6 и  $\omega$ -3 групп, а также, насыщенных, мононенасыщенных и полиненасыщенных.

В нашей республике в последние годы достигнуты существенные успехи по модернизации пищевых производств, значительно расширен ассортимент «здоровых» жировых продуктов. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены такие важные задачи, как «широкое внедрение инноваций в экономику, развитие кооперационных связей промышленных предприятий и научных учреждений»<sup>1</sup>. В связи с этим новые инновационные разработки инновационных технологий и рецептур функциональных продуктов питания с заданным комплексом показателей пищевой ценности имеют сегодня большое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 251 от 29.08.2015 г. «Об утверждении концепции и комплекса мер по обеспечению здорового питания населения Республики Узбекистан на 2015-2020 годы»; Указе Президента Республики Узбекистан, № ПП-4118 от 16.01.2019 г. «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию масложировой отрасли и внедрению рыночных механизмов управления отраслью» и других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

